

**AXSIKENT SIVILIZATSIYASI VA DAVLATCHILIK TARIXI:
MANBASHUNOSLIK HAMDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR
ASOSIDA QADIMGI FARG‘ONA POYTAXTINING O‘RGANILISHI.**

Xolmatov G‘ayratjon Muxtoraliyevich

Namangan davlat pedagogika instituti

katta o‘qituvchisi (PhD)

G‘aniyeva Farangiz Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

3-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22252394>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Axsikentning qadimgi Farg‘ona (Davan) davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatidagi o‘rni yoritiladi. Xitoy, arab, fors va turkiy manbalar asosida shaharning tarixi, nomlanishi hamda davlatchilik tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Axsikentda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari, olimlarning ilmiy qarashlari va shaharning Farg‘ona vodiysi tarixidagi tutgan o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Axsikent, Ahsi, Axsikat, Davan, Dayyuan, Farg‘ona vodiysi, davlatchilik tarixi, manbashunoslik, arxeologik tadqiqotlar, qadimgi shaharlar, Xitoy manbalari, tarixiy meros.

**АКСИКЕНТСКАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ И ИСТОРИЯ
ГОСУДАРСТВЕННОСТИ: ИЗУЧЕНИЕ ДРЕВНЕЙ СТОЛИЦЫ
ФЕРГАНЫ НА ОСНОВЕ ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИХ И
АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Холматов Гайратжон Мухторалиевич

старший преподаватель (PhD)

Наманганского государственного педагогического института

Ганиева Фарангиз Акмалжон кизи

студентка 3 курса

Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается роль Аксикента как политического, экономического и культурного центра древнего государства Фергана (Давань). На основе китайских, арабских, персидских и тюркских источников анализируются история города, его наименования и значение в системе государственности. Также освещаются результаты археологических исследований, проведённых в Аксикенте, научные взгляды исследователей и место города в истории Ферганской долины.

Ключевые слова: Аксикент, Ахси, Аксикат, Давань, Даюань, Ферганская долина, история государственности, источниковедение, археологические исследования, древние города, китайские источники, историческое наследие.

AKHSIKENT CIVILIZATION AND THE HISTORY OF STATEHOOD: A STUDY OF THE ANCIENT CAPITAL OF FERGHANA BASED ON SOURCE STUDIES AND ARCHAEOLOGICAL RESEARCH

G‘ayratjon Muxtoraliyevich Xolmatov

Senior Lecturer (PhD), Namangan State Pedagogical Institute

Farangiz Akmaljon qizi G‘aniyeva

3rd-Year Student, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the role of Akhsikent as the political, economic, and cultural center of the ancient state of Ferghana (Davan). Based on Chinese, Arabic, Persian, and Turkic sources, the history of the city, its various names, and its significance within the system of statehood are analyzed. The article also highlights the results of archaeological investigations conducted in Akhsikent, the scholarly views of researchers, and the city's place in the history of the Ferghana Valley.

Keywords: *Akhsikent, Ahsi, Akhsikat, Davan, Dayuan, Ferghana Valley, history of statehood, source studies, archaeological research, ancient cities, Chinese sources, historical heritage.*

O‘zbekiston hududidagi qadimiy shaharlar orasida Axsikent alohida tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan yirik markazlardan biri hisoblanadi. Qadimshunos olimlar tomonidan “Farg‘ona Afrosiyobi” deb ta’riflangan ushbu shahar xarobalari bugungi kunda Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorliklardan biri sanaladi. Tarixiy manbalarda Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun Turkiston tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida tilga olinadi. Qadimgi Xitoy manbalarida Farg‘ona davlati Dayyuan (Davan) nomi bilan qayd etilgan bo‘lib, uning poytaxti Yuan shahri ekanligi ko‘rsatiladi. O‘zbekistonlik arxeolog olim A. Anorboyevning ilmiy tadqiqotlari natijasida ushbu Yuan shahri aynan Axsikent ekanligi asoslab berildi. Bu esa Axsikentning miloddan avvalgi davrlardanoq yirik davlatchilik markazi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shaharning tarixini o‘rganishda Xitoy, arab, fors va turkiy tillardagi manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Balazuriy, Tabariy, al-Muqaddasiy, Yoqut al-Hamaviy, Bobur, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilarning asarlarida Axsikentning geografik joylashuvi, siyosiy mavqei va Farg‘ona hayotidagi o‘rni haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, XIX asr oxiridan boshlab N.I. Veselovskiy, M.E. Masson, Yahyo G‘ulomov va A. Anorboyev kabi olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar shaharning qadimiy tarixini yoritishda muhim ilmiy dalillarni taqdim etdi. Shu jihatdan Axsikent tarixini manbashunoslik va arxeologik tadqiqotlar asosida o‘rganish qadimgi Farg‘ona davlatchiligi tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Qadimshunos olimlar tomonidan “Farg‘ona Afrosiyobi” deya ta’rif berilib, Ahsi yoki Axsikent nomi bilan ataluvchi ko‘hna shahar xarobalari bugungi kunda

To‘rao‘rg‘on tumanidagi Shahand va Gulqishloq qishloqlari orasida, Sirdaryoning shimolida do‘ngtepaliklar ko‘rinishida yastanib yotibdi. Mazkur Eski Ahsi manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi [1]. O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy manbalarda moziy Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun Turkiston, jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaharlardan ekani xususida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan. Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalarning kindik qoni to‘kilgan zamin hamdir. Xususan, Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiy Axsikatiy, “Zul Fazoil” (“Fazilatlar sohibi”) nomi bilan shuhrat qozongan Abu Rashod Axsikatiy, “Zul Manoqib” (“Maqtovg‘a sazovor xislatlar egasi”) laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy, “Maliki shuaro” (“Shoirlar podshosi”) va “Amiri shuaro” (“Shoirlar amiri”) darajasiga erishgan Abdul Fazl Muhammad Tohir Asiriddin Axsikatiy, Tojuddin Abu Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo‘jandiy, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomuddin Axsikatiylar diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar.

Tariximizning turli davrlarida poytaxt vazifasini o‘tagan Axsikentning eng ko‘hna davriga doir ma’lumotlarni asosan bizgacha saqlanib qolgan Xitoy manbalaridan, shuningdek, bu yerda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijalari asosidagi xulosalardan olamiz.

Shaharning Islom dini kirib kelganidan keyingi, ya’ni o‘rta asrlar davri tarixini yoritishda esa asosan arab, fors hamda turkiy tilli manbalardan foydalanamiz. Balazuriy, Tabariy, al-Muqaddasiy, Yoqut al-Hamaviy, ibn Havqal, ibn Xo‘rdodbeh, Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiy, Istaxriy, Sayid Muhammad Tohir ibn Abdulqosim Kosoniy, Muhammad binni Najib al-Baqron, Abdurazzoq Samarqandiy, Muhammad Solih, Hofiz Tanish Buxoriy, Abul Fazl Allomiy, Mirxond, Abul Fazl Bayhaqiy, al-Fosih Havofiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Muhammad Haydar, Mahmud ibn Vali asarlarida

Axsikentning Geografik joylashuv o‘rni, o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Manzilgohni qazib o‘rgangan qadimshunos olimlar moddiy-ashyoviy dalillar va eng ko‘hna yozma Xitoy manbalariga tayangan holda shaharning paydo bo‘lishini taxminan miloddan avvalgi III asrlarga to‘g‘ri kelishi ma’lumotini berganlar [2]. “Ajoyib at-tabaqot” asarida ko‘rsatilishicha, shahar 1030 hijriy sanada (milodiy 1621 yilga to‘g‘ri keladi – T.Q.) zilzila natijasida butunlay vayronaga aylangan. Axsikentning arxeologik jihatdan o‘rganilishi 1885 yildan boshlangan. Dastlab, Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N.I. Veselovskiy ish olib bordi. 1913 yilda I.A. Kastanye tomonidan navbatdagi qazishma va tadqiq ishlari o‘tkazildi. 1939 yilda Katta Farg‘ona kanali qurilishi davrida professor M.E. Masson bu yerda arxeologik razvedka ishlari bilan shug‘ullandi. 1960 yildan esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Yahyo G‘ulomov boshchiligida mutaxassislar Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirdilar. I. Ahrorov, Y. Qosimov, A. Anorboyev va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan 1967–1969, 1970–1974, 1980–1990 va undan keyingi yillarda arxeologik qazishmalar o‘tkazildi hamda muhim ma’lumotlar, ashvoviy dalillar to‘plandi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori A. Anorboyev Axsikentda uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqot va qazishma ishlarini olib borishi natijasida ko‘plab ilmiy maqola va risolalar chop etdi [3]. Olim Eski Ahsi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida ko‘rsatib o‘tilgan Davan (Farg‘ona) davlatining poytaxti bo‘lganligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Olim qadimgi davrdagi Farg‘ona davlati va poytaxtining nomi Xitoy manbalarida qanday yuritilganligiga aniqlik kiritdi. Ya’ni, xitoyliklar Farg‘onani Dayyuan (Davan), poytaxtini esa Yuan deb ataganliklarini isbotladi. “Yuan” so‘zi xitoychada atrof chekkasi tepalik yoki tog‘lar bilan o‘ralgan makonga nisbatan

ishlatilganligini, “day” so‘zi esa katta, ulkan ma’nolarini berishini mutaxassis olimlar fikrlariga tayangan holda eslatib o‘tdi [4]. Sug‘d tilida “par” so‘zi devor yoki o‘rab olingan ma’nosini, “kan” so‘zi esa odamlar to‘planadigan joy ma’nolarini berganligiga olim e’tibor qaratib, xitoy tilidagi “Dayyuan” so‘zi ham aynan tarjimada “Farg‘ona” – “Parkana” ma’nolariga mos tushishini ko‘rsatib berdi. Shu bois xitoy manbalarida Dayyuan (Davan) deb atalgan davlat Farg‘ona bo‘lib, uning poytaxti Yuan esa qadimgi Axsikent ekanligini ilmiy jihatdan asosladi. “Dayyuan” so‘zi esa “Farg‘ona” so‘zining xitoy tilidagi tarjimasiga aynan mos tushadi. Chunki arab tilidagi manbalarda ham Farg‘ona nomi bir paytning o‘zida davlat va shu davlat poytaxtining nomi sifatida berilgan.

Qolaversa, ko‘plab mahalliy va arab manbalarida Axsikent Farg‘ona vodiysining qadimgi poytaxti ekanligi ta’kidlab o‘tilgan [5]. Aytish joizki, mo‘g‘ullar tomonidan Farg‘ona vodiysi qanday bosib olinganligi haqidagi ma’lumotlar manbalarda kam yoritilgan. Shunga qaramasdan, so‘nggi paytlarda shaharlar tarixiga oid chop etilgan deyarli barcha asarlarda vodiy Shaharlari ham yurtimizning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi, 1220–1221 yillardagi mo‘g‘ullar istilosi davrida butunlay vayron etilganligi ta’kidlanib yozildi. Shuningdek, aksariyat olimlar Axsikent haqida ham shahar mo‘g‘ullar davrida vayron etilgach, temuriy Umarshayx Mirzo davriga kelib aholi undan 5–6 kilometr g‘arbda yangi Ahsi shahriga asos solganligini qayd etdilar. Temuriylar davri Axsikenti yoki Umarshayx Mirzoning poytaxti Ahsi bu — hozirgi Ahsi qishlog‘i o‘rnida bo‘lganligini e’tirof etishdi. Xo‘sh, buning uchun tarixiy manbaviy asos bormi? Umuman, bu xulosani olimlarimiz qayerdan olmoqdalar? Biz o‘rgangan ma’lumotlarga ko‘ra, Ahsi, Axsikat va Axsikent bu bitta makon [6]. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Axsikent tadqiqoti bilan shug‘ullangan yevropalik sharqshunos va arxeolog olimlar Axsikent yoki Ahsi deganda faqatgina bitta obyektni nazarda tutishgan. U ham bo‘lsa, bugungi Shahand–Jomashuy yo‘li

yoqasida, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Eski Ahsi arxeologik yodgorligidir.

XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan tarixiy tadqiqotlar tahliliga nazar solinganda, Ahsi qishlog‘i o‘rnida temuriylar shahar barpo etganligi masalasi o‘rtaga tashlangan biron-bir asar uchramaganini ko‘rishimiz mumkin.

Axsikent Farg‘ona vodiysining eng qadimiy va yirik tarixiy markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixi Markaziy Osiyo davlatchiligi taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Xitoy manbalarida qayd etilgan Dayyuan (Davan) davlatining poytaxti sifatida Axsikentning ilmiy jihatdan asoslanishi shaharning qadimgi davr siyosiy hayotidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Arab, fors va turkiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar hamda arxeologik qazishmalar natijalari Axsikentning ko‘p asrlar davomida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lib kelganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu maskan ko‘plab alloma va mutafakkirlarni yetishtirib bergan ilm-fan markazi sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan.

Demak, Axsikent tarixini manbashunoslik va arxeologik tadqiqotlar asosida o‘rganish nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun O‘zbekiston davlatchiligi tarixining muhim sahifalarini yoritishga xizmat qiladi. Uni chuqur tadqiq etish va tarixiy meros sifatida asrab-avaylash bugungi kun tarixshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Anorbayev, A. Axsikent – stolitsa drevney Fergany. Toshkent: Tafakkur, 2013. 29-b.
2. Anorbayev, A. Axsikent – stolitsa drevney Fergany. Toshkent: Tafakkur, 2013. 337-b.
3. Anorboyev, A. Daryo sohilidagi poytaxt // Fan va Turmush. – 1988. – №8. 14–15-b.

4. Anorboyev, A. Yeshche raz o lokalizatsii stolichnyx gorodov Fergany (Davan – Dayyuan) i nekotorye spornye voprosy, svyazannye s nimi // Arxeologiya Uzbekistana. – 2010. – №1. 65-b.
5. Ahmad bin Yahyo ibn Jobir al-Balazuriy. Zavoyevaniye Xorasana (Izvlecheniye iz sochineniya «Futuh al-Buldan»). – Dushanbe: Donish, 1987. 28-b.
6. Pantusov N.N. Fergana, po «Zapiskam» sultana Babura. – Sankt-Peterburg, 1884. 46-b.
7. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Fan, 1996. 53-b.
8. Baburnoma. – Toshkent: Glavnaya redaktsiya ensiklopediy, 1993. – 375-b.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 8-b.